

## CHORVACHILIKDA FOYDALANILADIGAN YEM-XASHAK TURLARI

**Babaniyazov B.J., Muqimova A., Abdug‘ofurov B.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi va chorvachilik biotexnologiyalari universiteti Nukus filiali

**Annotaciya:** Barcha turdagi chorva mollari va parrandalarini ma’lum maqsad asosida to‘g‘ri boqish ularning jadal o‘shishi va yaxshi rivojlanish imkonini beradi, shu bilan birga, mahsuldorligini keskin oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada chorvachilikda foydalaniladigan yem-xashak turlari, ularning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, tahlil natijalari ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** chorvachilik, mikroelement, makroelement, kalsiy, natriy, aralash oziq, senaj, me‘yori, fiziologik jarayon, mahsulot.

Yem-xashakning kimyoviy tarkibiga ko‘ra to‘la qiymatli va to‘yimli turlari bilan boqish hayvonlarni to‘g‘ri oziqlantirish deyiladi. Fiziologik jihatdan to‘la qiymatli deganda, hayvonlarning fiziologik holati (bo‘g‘ozligi, sog‘ish davri, sutdan chiqarilganligi, ma’lum maqsad asosida boqilishi va h. k.)ga ko‘ra va ularning yoshi, vazni, jinsi, mahsuldorlik darajasini hisobga olgan holda oziq miqdoriga bo‘lgan ehtiyojini to‘la ta‘minlash tushuniladi.

Agar mollar sifatsiz yem-xashak bilan noto‘g‘ri boqilsa, ularning mahsuldorligi pasayib ketadi, sog‘ligi yomonlashadi, yosh mollar o‘shish va rivojlanishdan to‘xtaydi.

Chorva mollari va parrandalarini xilma-xil yem-xashak bilan ta‘minlash — ular tarkibidagi kimyoviy moddalarning miqdori, to‘yimliliigi va biologik qiymati muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, beriladigan yem-xashakning tarkibi turli xil foydali kimyoviy elementlarga boy, sifati va hazm bo‘lish xususiyati qancha yuqori bo‘lsa, uning samaradorligi ham shuncha yuqori bo‘ladi [1].

Suv — har bir hayvon va o‘simlik organizmida juda muhim vazifa bajaradi. U organizmda oziq moddalarni bir joydan ikkinchi joyga yetkazishda vositachi bo‘lishi bilan birga, ovqat hazm qilishda, tana haroratini boshqarishda, qoldiq moddalarni ajratib chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Yem-xashak tarkibida suv qancha ko‘p bo‘lsa, uning qiymati shuncha past bo‘ladi. Ildizmevalar, ko‘k o‘t, sut mahsulotlarida suv ko‘p bo‘ladi.

Quruq moddalar asosan mineral (kul) va organik birikmalardan iborat. Mineral moddalar birikmalari organizmda muhim vazifa bajaradi. Masalan, ular hujayralarning oziq moddalar shimilishida va o‘zlashtirishida osmatik bosimini saqlashda ham muhim vazifa bajaradi.

Mineral moddalar ikkita katta guruhni (makro va mikro elementlarni) tashkil etadi. Makroelementlar — kalsiy, fosfor, natriy, xlor, kaliy kabi moddalardan tashkil topgan [2]. Mikroelementlar — temir, mis, marganes, kobalt, yod va h. k.lardan iborat. Bu moddalar hayvon organizmi uchun nihoyatda muhimdir.

Organik moddalar azotli va azotsiz moddalardan hamda vitaminlardan tashkil topgan. Azotli moddalar, ya‘ni aralashmali protein tarkibida azot bo‘lgan oqsilsiz

birikmalardan iborat amidlar hisoblanadi. Yem-xashak tarkibida protein turli miqdorda bo‘ladi. Masalan, dukkakli o‘simliklar poyasida 15 foiz, donida 25-30 foiz, baliq unida 50-60 foiz atrofida bo‘lishi aniqlangan.

Yem-xashakning oziqliq qiymati tarkibi muhim hayotiy elementlarga boy bo‘lishi va tez hazm bo‘lish xususiyati bilan belgilanadi. Buning uchun yem-xashak maxsus kimyoviy laboratoriyalarida analiz qilinadi. Yem-xashakning ayrimlari tez hazm bo‘lsa, boshqalari sust hazm bo‘ladi. Binobarin, ularning kimyoviy tarkibi, hazm bo‘lish xususiyati va barcha moddalarning organizmga to‘la singishini asoslab bera olmaydi. Shuning uchun yem-xashakning hazm bo‘lishi, hayvonlar organizmda singishi foiz hisobida yuritiladi va koeffitsiyent darajasida belgilanadi.

Hayvon va parrandalarga, beriladigan barcha turdagi yem-xashaklar asosan uch guruhga, ya’ni o‘simliklardan tayyorlangan, hayvon va parrandalardan olinadigan hamda mineral qo‘shimchalarga bo‘linadi [3]. Ularning asosiy turlari: ko‘k o‘t, xashak (pichan, somon), senaj, silos, ildizmevalar, tegirmon va oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan iborat. Tabiiy va sun‘iy xolda o‘stiriladigan barcha turdagi o‘simliklar ko‘kat oziq hisoblanadi. Masalan, har xil o‘tlar, boshoqdosh (arpa, suli, bug‘doy) va dukkakdosh o‘simliklar (beda, no‘xat, loviya) ildizmevalarning poyasi, bargi shular jumlasidandir. Bu oziq turlari asosan bahor, yoz va kuz oylarida chorva mollariga ko‘proq beriladi. Ular tarkibida, suv, protein, karotin, vitaminlar (A, D, E, S) kabi moddalar ko‘p bo‘lishi bilan qimmatlidir. Bular hayvonlarning o‘sishi, rivojlanishi, semirishi va mahsuldorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dag‘al oziqlar asosan: pichan, somon, turli xildagi o‘simliklarning (makkajo‘xori, g‘o‘zapoya, oqjo‘xori, kungaboqar va hokazolarning) poyasi, so‘tasi va chanoqlaridan iboratdir. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida chorva mollarini oziqlantirishda ulardan keng foydalaniladi.

Pichan barcha turdagi oziqlar ichida ko‘proq ishlatiladi. Ayniqsa, beda pichani ot, qo‘y va qoramollar uchun muhim oziq hisoblanadi. Pichanning kimyoviy tarkibi uning sifatiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Masalan, uning tarkibi 4-26 foiz protein, 3-7 foiz yog‘, 20-35 foiz kletchatka, 28-39 foiz azotsiz ekstraktiv moddalar (AEM), 3-11 foiz kuldandan iborat. 1 kg sifatli beda pichanida 0,5 kg gacha oziq birligi bo‘lishi mumkin. O‘t (beda) uni ko‘k o‘tlardan, ko‘proq bedadan tayyorlanadi. Uning 1 kg tarkibida 170-200 g oqsil, 200-2500 mg karotin bo‘ladi. Aralash oziq tayyorlashda u ko‘p ishlatiladi.

Hayvonot mahsulotlaridan tayyorlangan oziqlar — sut va sut chiqindilari (sut zardobi, yog‘i olingan sut), qushxona chiqitlari (qon uni, suyak uni, go‘sht uni) va baliq uni kabilardan tashkil topgan. Ular yuqori to‘yimlilik darajasiga ega bo‘lgan oziqlar hisoblanadi. Sersuv oziqlar asosan ildizmevalar, kartoshka, xashaki poliz o‘simliklari, silos, senaj, lavlagi turpi, bardi va ko‘k o‘tlar kiradi. Ko‘k o‘tni hisoblamaganda, sersuv oziqlar tarkibida oqsil va mineral moddalar oz bo‘ladi. Ular orasida eng to‘yimliliigi kartoshka tugunagi hisoblanadi. Chunki 1 kg kartoshka tugunagi o‘rtacha 0,3 kg oziq birligiga teng.

Senaj — tayyorlash texnologiyasi rus olimi A. Mixin (1966) tomonidan ishlab chiqilgan. Senaj oziqbop o‘simliklarni (asosan beda va boshqa dukkakli va boshoqli o‘simliklardan) 45-55% namligi qolguncha so‘litib, ularni konservalangan holda, maydalab, zichlab tayyorlanadi. U o‘zining to‘yimliliigi, mineral moddalarga

boyli, fizik va kimyoviy xususiyatlariga ko'ra pichan bilan silosning o'rtasida turadi. Uning nomi ham shundan (pichan-silos yoki senaj deb) kelib chiqqan. Senaj o'zining tarkibidagi o'simliklar turiga ko'ra uning har 1 kg da 0,4-0,5 oziq birligi va 60-65g hazm bo'luvchi protein borligi aniqlangan. Bir sutkada sog'in sigirlarga 20-25 kg, buzoqlarga yoshiga ko'ra 2-4-6-10 kg, qo'ylarga 3-4 kg, qo'zilarga 1-2 kg senaj berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, barcha turdagi oziqlarni mollarga berishdan avval qayta ishlash talab etiladi. Sersuv oziqlarning turlari bilan birga ularni mollarga berish oldidan qayta ishlash ishlariga ham alohida e'tibor berish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. D.Xolmirzayev, X.B.Yunusov "Chorvachilik mahsulotlarini dastlabki va qayta ishlash texnologiyasi va standartlash". Toshkent 2023.
2. T.H.Ikromov "Chorvachilik asoslari". Toshkent 2001.
3. Патијева С. В., Тимошенко Н. В., Патијева А. М.. Технология мясных продуктов функционального и специального назначения: учебное пособие. - Краснодар : КубГАУ. 2015. - 326 с
4. Clerence Henry Eckles. Dairy Cattle And Milk Production-Prepared For The Use Of Agricultural College Students And Dairy Famers. Codman Press. 2007

## **CHORVA MOLLARINI RATSION ASOSIDA OZIQLANTIRISH**

**Babaniyazov B.J., Muqimova A., Abdug'ofurov B.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi va chorvachilik biotexnologiyalari universiteti nukus filiali

**Annotatsiya:** Hayvonlarning fiziologik holati, mahsuldorligi va xo'jalikda foydalanish xususiyatlariga ko'ra, hayvon organizmining oziq moddalar miqdoriga bo'lgan talabi oziq me'yori deb ataladi. Ushbu maqolada chorva mollarini ratsion asosida oziqlantirish masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, fikr va tavsiyalar ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** chorvachilik, me'yor, ratsion, oziq me'yori, fiziologik jarayon, mahsulot, kimyoviy modda, yog' moddalar.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda, ularning sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirishda, shuningdek, ratsionni to'g'ri tuzishda oziq me'yori asos qilib olinadi. Shunga ko'ra, xo'jaliklarda mollarning yoshi, soni, tarkibi, mahsuldorligi va hokazolarga qarab ularga qancha oziq (yem-xashak) talab qilinishini rejalashtirish mumkin.

Mollarning oziq me'yorini belgilash va ishlab chiqarish masalalari bilan uzoq yillar mobaynida shug'ullanilgan va u har tomonlama asoslangan holda o'rganilgan. Binobarin, hozirgi vaqtda ilmiy jihatdan asoslangan, ilg'or tajribalar asosida tasdiqlangan oziq me'yorlari ishlab chiqilgan va chorvachilik xo'jaliklarida amalda joriy etilgan [1]. Bunda beriladigan oziq birligiga, hazm bo'ladigan protein, osh tuzi,